

UMUMTA'LIM MAKTAB O'QITUVCHILARI KASBIY MALAKASINI OSHIRISHDA – AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Utamurodova Gulchexra Norboyevna, o'qituvchi
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo'lib, umumta'lim maktab o'qituvchilarni kasbiy malakasini oshirishda axborot texnologiyalarining o'rnini masalasiga qaratilgan.

Tayanch so'zlar: Axborot, axborot texnologiyalar, interaktiv usul, integratsiya, barkamol avlod, kasb, maxorat, pedagog.

Prezidentimizning ta'lim sohasini yanada rivojlantirish maqsadida olib borayotgan sa'y xarakatlaridan kelib chiqib sayqallanib yanada rivojlanib bormoqda. Barkamol avlodni shakllantirishning pedagogik, psixologik, ma'naviy-iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy omillari pedagog-o'qituvchilarning raqobatbardoshlik, kasbiy malaka va pedagogik mahoratini kuchaytirishni davr taqozosi qilib qo'yimoqda. Shu sababli ham malaka oshiruvchi o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiyaviy ishlarning interaktiv usullaridan foydalana oladigan qilib hamda o'zidagi pedagogik faoliyat mahoratini va ko'nikmalarini yanada takomillashtirish, rivojlantirish ustidagi faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila oladigan, shuningdek, ularni mustaqil ilmiy-pedagogik va kasbga doir boshqaruv faoliyatiga loyiq qilib tayyorlash bugunning dolzarb muammosidir. Kasbiy shakllanish - bu kasbiy faoliyat ta'siri ostida shaxsning kasbiy rivojlanishini o'zgartirish jarayoni bo'lib, natijada, ishchi shaxsida turli xil ichki va tashqi omillar ta'sirida mehnat samaradorligiga yomon ta'sir ko'rsatadigan yangi salbiy xususiyatlar paydo bo'ladi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbuslari bilan 2017 yilning 7 fevral kuni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon asosida 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi "Harakatlar strategiyasi"da belgilab berildi. Harakatlar Strategiyasining to'rtinchi ustuvor yo'nalishi ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, unda "...ta'lim, madaniyat, ilmiy fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" masalasiga katta e'tibor qaratilgan. Ma'lumki Harakatlar strategiyasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi Nizomini tasdiqlash haqidagi 140-sonli, 2017 yil 6 aprelda "Umumiy o'rta va o'rta mahsus kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori qabul qilinganligi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish hamda uzviyligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etmoqda.[1.3.9].

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risidagi qarorning qabul qilinishi ta'lim tizimini tubdan moderenizatsiya qilinayotganligidan dalolat beradi .

Shuning bilan birga bo'lajak mutaxassislarni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiyaviy ishlarning interaktiv usullaridan foydalana oladigan qilib hamda o'zidagi pedagogik faoliyat mahoratini va ko'nikmalarini yanada takomillashtirish, rivojlantirish ustidagi faoliyatini ilmiy tashkil qila oladigan bo'lishida shuningdek ularni mustaqil ravishda o'z ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishda ilmiy -pedagogik va kasbga doir qobiliyatning shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o'rta maktab ta'limining asosiy figurasi bu o'qituvchi pedagoglardir. O'qituvchining bolalarga mehr qo'yishi, ular bilan do'stona muomalada bo'lishdan, bolalarning ruhiy dunyosiga kirib borish imkoniyatidan chuqur qoniqish hissida ijobiy ruxda tarbiyalash bilan birga, ularga nisbatan bo'shanglik, soxta mulozamatga, marhamatlik va ko'ngilchanlikka aylanib ketmaydigan salbiy sifatlarni shakllantirishdan voz kechish hamda diqqat-e'tibor va xushyorlikdan iborat do'stona munosabatni, bolalar bilan bo'ladigan munosabatning sodda va samimiy bo'lishini aloxida yodda tutish lozim.

Kishining faoliyatini samarali bo'lishi ko'p jixatdan uning kasbiy tanlovidan qoniqqanligi bilan bog'liq. Jumladan pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi o'qituvchining kasbiy tanlovidan qonniqanligi bilan ham belgilanadi.

Kishining mehnatdan qoniqishiga ta'sir etuvchi shaxsiy sifatlarni qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin.

- 1) Yoshning ulg'ayib borishi bilan kishida mehnatdan qoniqish xissi rivojlana boshlaydi;
- 2) Ish xaqining ortib borishi, tegishli rag'batlar va pedagogni qo'llab quvvatlanishi kasbga nisbatan mehrni shakllantirishga xizmat qila boshlaydi;
- 3) Jamoada adolatlilik tamoyiliga amal qilinganligi, barchaga mehnatning to'g'ri taqsimlanganligi pedagogda kasbiy tanlovdan qoniqqanlikni shakllantiradi.
- 4) Pedagogik mahoratni egallash jarayonidagi kognitiv qobiliyatlarni –mehnat faoliyatining intellekt darajasiga mos kelishiga va bu o'z-o'zidan kasbiy qoniqishga olib keladi.
- 5) Kishining sog'lomligi va kayfiyatning ko'tarinki bo'lishi pedagogik faoliyatda yuqori natijalarni kafolatlaydi. [3.96].

Shuning uchun o'qituvchilarining malakasini oshirish pedagogik qobiliyatini rivojlantirish, axborot texnologiyalarni qo'llaydigan–zamonaviy kadrlar tayyorlash jarayonida eng muhim vazifalardan biridir. Pedagog kadrlarini malakasini oshirishning, Innovatsion ilmiy yutuqlarni, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashni, masofadan o'qitishni, mustaqil ta'lim olishni kengaytirishni nazarda tutuvchi texnika va texnologiyalarning istiqbolda rivojlanishini hisobga oluvchi dasturlarini ishlab chiqarish va joriy etish asosiy vazifa sifatida belgilab qo'yilgan. Shu bois bugungi ta'lim jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Zero, yuqori sur'atlar bilan o'sib borayotgan jahon hamjamiyatiga integratsiyalashishga interfaol pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali erishiladi. Iqtisodiyotning boshqa sohalaridan farqli ravishda, bugun ta'lim jarayonlarini muntazam yangilash talab etilmoqda. Bu talabni ta'minlash esa

interfaol pedagogik va axborot texnologiyalarini zamon talablari asosida olib borishni taqozo etadi.

Bu esa kadrlar tayyorlash milliy dasturining uchinchi bosqichi vazifasini hal qilinishining bir varianti hamdir. Ushbu variant o'z navbatida qator vazifalarni hal qilishni taqozo etadi. Ular:

- malaka oshiruvchi o'qituvchilarni zamonaviy talablar asosida intellektual salohiyatli qilib tarbiyalashga erishish, ya'ni ilm-fan va texnika-texnologiyalarning zamonaviy yutuqlarini amaliyotda joriy etishga yo'naltirilgan kasb tayyorgarligiga ega qilish;

- malaka oshiruvchi o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanilgan pedagogik texnologiyalar va interaktiv ta'lim metodlaridan foydalanishga o'rgatish va shu kabilar.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarga malaka oshiruvchi o'qituvchilarni ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishsiz erishib bo'lmazligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Shu sababli ham malaka oshiruvchi o'qituvchilarni ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda ilmiy izlanishlar haqidagi bilimlar va ularning uzviyligi hamda uzluksizligini ta'minlash haqidagi ilmiy tadqiqot ishimiz natijasini keltiramiz.

Ma'lumki, izlanish, ijodiy faoliyat yuritish natijasida biror yangilikka erishish demakdir. Natijalar ijodiy izlanish xususiyatiga qarab turli shakllarda bo'lishi mumkin, ya'ni referat, tezis, maqola, kitob, avtoreferat, dissertatsiya, monografiya yoki shakllangan fikr, g'oya, qarash (kontseptsiya), ta'limot yoki qurilma, mexanizm, mashina, ixtiro, patent, kashfiyot yoki usul, uslubiyat, metod, mezon, texnologiya, model, algoritm, tamoyil, modul va h.k. [5.252].

Ilmiy dunyoqarashi keng mutaxassis o'zida quyidagi yutuqlarni ham mujassamlashtirgan bo'ladi: -axborotlarda doim habardor, insoniyat hayotiy ehtiyoji uchun zarur narsa yoki predmetlarni (amaliy faoliyatda foydalanishga qulayligini o'ylagan holda) takomillashtirib, ular qatoriga yangilarini qo'shib borish imkoniyatiga ega bo'ladi; - insonlar turmush tarzini yuksaltirib borish borasidagi zamonaviy ilmiy izlanishlar ko'lamini kengaytirib borib jismoniy ishlarni ko'proq aqliy mehnat faoliyati jarayoni bilan almashtirishga erishadigan bo'ladi; - jamiyat intellektual salohiyatini yuksaltiruvchi ijodiy ishlar ko'lamini kengaytirib borib «XXI - asr intellektual asr»ning faol ishtirokchilarini tayyorlashga erisha borish, ya'ni har qanday zamonaviy texnika-texnologiya bilan «tillasha» oladigan mutaxassislar tayyorlash qobiliyatiga ega bo'ladi;

- ta'lim-tarbiyaning samarali yo'llarini izlash va ularga mos malakali mutaxassislar tayyorlashning istiqbolli texnologiyalarini yaratishga intellektual salohiyati etadigan bo'ladi;

- yoshlarimizni mustaqillik mafkurasi asosida tarbiyalashning istiqbolli va axborot texnologiyalari asosida metodologiyani yaratishga qodir bo'ladi;

- jamiyatni axborotlashtirish sari borayotgan bir paytda bo'lajak o'qituvchilarning kompyuterli savodxonligini oshirishning optimal yo'llarini yaratish va ulardan amaliy faoliyatda muntazam foydalanishni ham amalga oshira oladi. [6.200].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki avvalo axborotga pedagogik izohli lug'atlarda shunday tasniflar berilgan.

Axborot texnologiyalari-jarayonlarni boshqarishdagi asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Ular ilmiy xodim tomonidan tayyorlangan ma'lumotlarni tizimlarga ajratishqayta ishlash hamda kerakli maqsadlar bo'yicha qayta ishlangan ma'lumotlarniuzatish algoritmlarini o'zichiga oladi. [7.36].

Shuning uchun bugungi kasiy tayyorgarlikka ega o'qituvchi axborot texnologiyalaridan ratsional foydalanish pedagoglar mehnati samaradorligini oshiradi.

Ushbu yo'nalishda professor X. A. To'raqulovning ishlarida bunga mos tadqiqot natijalari bor. Bu haqda «Ma'lumotlar bazasini shakllantirish yo'nalishlari bo'yicha qaralayotgan soha (jarayon) ierarxiyasi hisobga olinadi yoki bir butun boshli tizim qaralayotganda qism tizimlardan tortib, tizim elementigacha bo'lgan ierarxiya bo'yicha jarayon davom etadi

Demak, axborotlar belgi (harflar, so'zlar), raqam, son va ular ustida amallar, formula, grafik, shuningdek, nutq, matn, tasvir va boshqa ko'rinishlar yordamida namoyon bo'ladi. Iste'molchi nuqtai nazaridan, axborot – bu eng oxiridagi foydalanuvchi tomonidan olingan tushunchalar va foydali, deb baholangan yangi ma'lumotdir.

Bu qayd etilganlarni hal qilish uchun eng avvalo malaka oshiruvchi o'qituvchilarni ongida axborot texnologiyalar haqidagi tushunchalarni paydo qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

- malaka oshiruvchi o'qituvchilarga istemolchi sifatida axborot texnologiyalardan foydalanish axborotlarni saqlash, qayta ishlash va rejalashtirilgan maqsadni amalga oshirishda axborotni o'quvchilarga uzatishni hamda qayd etilgan jarayonlarni amalga oshirishda texnik vositalardan foydalanishni o'rganishlari shart. Bu oqituvchilar ijodkorliginioshiradi shuning uchun malaka oshiruvchi o'qituvchilarni aniq mavzu bo'yicha referat yozishni topshirish orqali ham amalga oshiriladi va shu tariqa o'quv jarayonidagi o'qitishni tugatgunga qadar joriy topshiriqlar berib borilaveradi. Bu boradagi ushbu ilmiy izlanishimizning samaralarini «Ilmiy ijodiyotga kirish» mavzusidagi fanni o'rganishda yaqqol seziladi.

Xulosa o'rnida shuni qayd etish joizki, o'qituvchining kasbiy malakasini oshirib boorish va axborot texnologiyalarda unumli foydalanishi ta'lim -tarbiya jarayonining istiqbolli va samarali bo'lishligini, shuningdek ilmiy tadqiqot va loyihalash ishlarida, ta'limni boshqarishlarida to'g'ri qarorlar qabul qilishda ishonchli ma'lumotlarga tayanish imkonini beradi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da qayd etilgan raqobatbardosh zamonaviy kadrlarni tayyorlashning optimal variantini yaratishni kafolatlaydi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Sh.M.Mirziyoyev.“O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni Xarakatlar strategiyasi 2017 y
2. G'oziev E. O'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish. – Toshkent: O'qituvchi, 1988. 96.b

3. Milliy iqtisodda axborot tizimlari va texnologiyalari R.X.Alimov, H.S.Lutfullaev va R.X.Alimov tahriri ostida. – Toshkent: «Sharq», 2000. – 592 b.
4. To‘raqulov X.A. Ilmiy ijodiyot metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2006. – 252 b.
5. J.Hasanboyev va b.Pedagogika fanidan izohli lug‘at.-Toshkent: Fan va texnologiya. 31 b
6. Muhammedov I., To‘raqulov X.A. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2004. – 200 b.
7. Kamolova, SH. O‘., & Munarova, R. O‘. (2010). Urovni sovershenstvo lichnosti. Issledovatel nauchniy jurnal.–Qozog‘iston, 5(49), 100-105.
9. Kamolova, S., & Amanxonova, Y. (2022). O‘quvchilar tafakkur jarayonlarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, 2(6).
10. Kamolova, S., & Maxmudova, A. (2023). Oliy ta’lim muassasalarida pedagogik kadrlarni tayyorlashning psixologik jihatlari. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, 3(1).
11. Yaxshiyeva, M. SH., Kamolova, SH., Eshonkulov, E. S., Jumartova, U. U., & Urazoliyev, X. A. (2015). Formirovaniye nauchnogo mirovozzreniya studentov. In Aktualniye zadachi pedagogiki (pp. 184-186).
12. Shamsidinovna, A. M. (2023, April). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA BERILADIGAN TA’LIM MAZMUNI. In E Conference Zone (pp. 22-25).
13. Adilova, M. (2023). THE PSYCHOLOGICAL EFFECT OF TRAPS IN THE SOCIAL NETWORK ON YOUTH MIND AND SPIRITUALITY. Open Access Repository, 4(2), 500-505.
14. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). SHAXS EMOTSIONAL INTELLEKTINING PSIXOLOGIK VA PSIXOFIZIOLOGIK JIXATLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2).
15. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSIYA–OSMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TASIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1).
16. Muratovich, M. E., Kurbon, O., & Shamsiyevna, A. M. (2022). Some features of the formation of mathematical representations in preschoolers in the process of familiarizing them with the size and shape of objects.
17. Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLADA O ‘ZINI-O ‘ZI ANGLASHDA OILANING ROLI. In E Conference Zone (pp. 11-16).
18. Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). PROFESSIONAL MOTIVATION AND ITS STRUCTURE IN THE MANAGEMENT PROCESS. In E Conference Zone (pp. 11-16).

- 19.Madina, A., & Lobar, R. (2023). HUQUQIY ONG TUSHUNCHASINI O'RGANISHNING NAZARIY JIHLTLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 375-379.
- 20.Madina, A., & Donoxon, M. (2023). OILADA YOSHLARNI TOLERANT MADANIYATLI QILIB TARBIYALASH VA IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 353-358.
- 21.Madina, A. (2023). BOLALARDA AHLOQIY FAZILATLARNI PSIXOLOGIK SHAKLLANTIRISH USULLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 340-345.
- 22.Shamsidinovna, A. M. (2023, May). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA 12.AHLOQIY JIHLTLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JARAYONLARI. In *E Conference Zone* (pp. 6-12).
- 23.Shamsidinovna, A. M. (2023, April). MAKTAB O'QUVCHILARINING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISHNING AHAMIYATI. In *E Conference Zone* (pp. 1-5).
- 24.Norbekova, B. S. (2016). YOSH VA O 'TISH DAVRI XUSUSIYATLARINING PEDAGOGIK QAROVSIZ O 'SMIRLAR KELIB CHIQUISHIGA TA'SIRI. The edition is included into Russian Science Citation Index., 77.
- 25.Норбекова, Б. 2021. Духовное воспитание - как основа психологического воспитания. Общество и инновации. 2, 10/S (ноя. 2021), 105–109. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss10/S-pp105-109>.
- 26.Shavkatovna, N. B. (2022). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BILAN ISHLOVCHI SHAXSLARNING PSIXOLOGIK XOLATINING PATOLOGIYASI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 658-662.
27. Norbekova, B. (2022). O'roqboyeva M. Maktabgacha ta 'limda psixologik xizmatni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollari, 1(1), 481-483.
- 28.Alibekov, D. (2020). Socio-philosophical basis of educational system development. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 10 (90), 24-26. SoI: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-90-6> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.10.90.6>
- 29.Alibekov D. SOTSIALNO-FILOSOFSKIE OSNOVY RAZVITIYa SISTEMY OBRAZOVANIYa //Jurnal muzyki i iskusstva. – 2021. – T. 2. – №. 2.
- 20.Farsakhanova, Dilafuz, and Davron Alibekov. "Technology to improve the quality of education based on educational values." *Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI* (2020).
- 30.Alibekov, Davron. "Sharq mutafakirlarining ta'lim-tarbiya borasidagi qarashlari." *Jurnal muzyki i iskusstva* 2.1 (2021).
- 31.Alibekov, D., & Abduraqibova, D. (2023). TA'LIM TIZIMINING STRATEGIK RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI.

- Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1).
извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7730>
32. Alibekov, D. (2023). JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TA'LIM TIZIMIGA INNOVATSION YONDASHUVNING STRATEGIK AHAMIYATI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(3), 168-173.
извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9137>
33. Alibekov, D. (2023). JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TA'LIM TIZIMIGA INNOVATSION YONDASHUVNING STRATEGIK AHAMIYATI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(3), 168-173.
извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9137>